

**O'ZBEKISTONDA SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING KO'RINISHLARI****O'RINBOYEVA MA'MURA TOJIDDIN QIZI**

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar Fakulteti

Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi 2-boshqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy demokratik jamiyatlarda siyosiy barqarorlik va taraqqiyotning asosiy tayanchi — bu fuqarolarning siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi va ijtimoiy ong darajasi ekanligi hamda aynan shu omillar shaxsning jamiyatdagi siyosiy tizimga munosabati va unga bo'lgan ishonchini shakllantirishi to'g'risida. Ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan davlat siyosati, fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning faoliyatiga bog'liq. Oila, maktab, oliy ta'lim muassasalari, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tarmoqlar siyosiy ijtimoiylashuvning asosiy institutlari sifatida harakat qiladi. Maqolada Sotsiolog olimlarning siyosiy ijtimoiylashuv nazariyalari hozirgi zamon uchun ham muhim ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, siyosiy ijtimoiy, huquq, huquqiy ong, siyosiy faollik, fuqarolik.

Abstract: This article is about the fact that the mainstay of political stability and progress in modern democratic societies is the level of political culture, political activity and social consciousness of citizens, and it is these factors that shape the individual's attitude to and confidence in the political system in society. The effectiveness of this process largely depends on public policy, the level of development of civil society, the educational system, the activities of the media and social institutions. Family, School, higher education institutions, political parties, religious organizations and social networks



act as the main institutions of political socialization. The article reveals that the theories of political socialization of sociologist scientists are also important for the present.

Keywords: socialization, political social, law, legal consciousness, political activism, citizenship.

Siyosiy ijtimoiylashuv — bu shaxs yoki guruhlarining siyosiy bilimlar, qadriyatlar, me'yorlar va institutlar bilan tanishib borish, ularni o'zlashtirish va o'z siyosiy qarashlarini shakllantirish jarayonidir.

Siyosiy ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy fanlar, ayniqsa, siyosatshunoslik va sotsiologiyada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Amerikalik olim David Easton bu jarayonni "siyosiy tizimni qabul qilish va unga moslashish vositasi" sifatida izohlaydi. Siyosatshunos Gabriel Almond va sotsiolog Sidney Verba “Siyosiy madaniyatni individual munosabatlarni umumiy siyosiy tizim tuzilishi bilan bog'laydigan element“ deb hisoblashadi [1]. Hamda siyosiy ijtimoiylashuvni "shaxslar va guruhlarining siyosiy qarashlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi institutlar va mexanizmlar tizimi" deb tariflaydi. Ularning fikricha, siyosiy ijtimoiylashuv orqali fuqaro jamiyatdagi siyosiy me'yorlarni o'zlashtiradi va siyosiy tizimga moslasha oladi. Bu jarayon ikki yo'nalishda kechadi:

- birinchidan, yangi avlodga siyosiy qadriyatlar, an'analar va institutlar haqida axborot yetkaziladi;
- ikkinchidan, shaxs o'zining siyosiy pozitsiyasini shakllantirib, faol fuqaroga aylanadi. Siyosiy ijtimoiylashuv subyektlari — oila, maktab, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar, ijtimoiy tarmoqlar — barchasi siyosiy ong va madaniyatni shakllantiradi.

Siyosatshunoslar Gabriel Almond va Jeyms Koulman bir vaqtlar biz " siyosiy xulq-atvorimiz, munosabatimiz, qadriyatlarimiz va bilimlarimizni genlarimiz orqali meros qilib olmaymiz, buning o'rniga, biz o'z rolimizni tushunamiz va siyosiy ta'lim jarayoni orqali siyosiy madaniyatimizga "moslashamiz"[2] deydi. Ular hukumat va siyosatni tushunishga yordam beradigan bilim, e'tiqod va qadriyatlarga ega bo'ladilar.



Siyosiy ijtimoiylashuvda odamlar o'z mamlakatlarida yaxshi fuqaro bo'lishga yordam beradigan munosabat, qadriyatlar, e'tiqodlar, fikrlar va xatti-harakatlarni rivojlantiradigan siyosiy ta'limning o'ziga xos turi. Ijtimoiylashuv asosan bir tomonlama jarayon bo'lib, yoshlar kattalar va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro munosabatlari orqali siyosiy dunyo haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Siyosiy ijtimoiylashuv turli vazifalarni bajaradi.

Integratsion — shaxsni siyosiy tizimga moslashtiradi, odamlar ijtimoiylashuv jarayoni orqalisiyosiy tizimga munosabatni rivojlantiradilar. Siyosiy qonuniylik, saylovlar kabi siyosiy tizim va jarayonlarning yaxlitligiga ishonib moslashadi.

Translyatsion — siyosiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatadi.

Identifikatsion — fuqaroda siyosiy identitet (kimlik)ni shakllantiradi, shaxsni siyosiy jarayonlardagi o'rni va ro'lini belgilab beradi.

Faollikni oshirish — siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokni rag'batlantiradi.

Ushbu vazifalar orqali shaxs jamiyatdagi siyosiy ijtimoiylashuvga kirishishi tez va oson bo'ladi.

Shaxs ijtimoiylashuvida bo'lgan jarayonlarni chuqur taxlil qilagn psixolog va sotsiologlar Zigmund Freyd, Jorj Herbert Mead, Charlz Kuli, Talkot Parsons va Jan Piaget bo'lib ular muhim hissa qo'shganlar. Shunday muhim hissa qo'shganlar ichida Talkot Parsons va psixolog Jan Piaget yaratgan kognitiv rivojlanish nazariyasi, bu bolalarning mentaliteti o'sib ulg'ayganida va jamiyat bilan yanada o'zaro aloqada bo'lishida qanday rivojlanib, yetuklashishi haqida gapiradi [3].

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu masalaning dolzarbligini bir necha bor alohida ta'kidlab o'tgan. U 2021-yilgi Oliy Majlisga murojaatida quyidagicha fikr bildirgan edi:

"Bugungi O'zbekiston yoshlari har tomonlama yetuk, siyosiy jihatdan hushyor va vatanparvar bo'lishi kerak. Zero, bu – yangi O'zbekistonning asosi bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartidir"[4].

Ushbu fikr siyosiy ijtimoiylashuvning faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ekanini ko'rsatadi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, saylov



qonunchiligi takomillashtirilishi, fuqarolik institutlarining faollashtirilishi, yoshlarning siyosiy jarayonlarga jalb qilinishi — ularning barchasi siyosiy ijtimoiylashuv uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Xulosa

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni o'zining dolzarbligini yanada kuchaytirgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar, demokratik tamoyillarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi masalalar siyosiy ijtimoiylashuvning samarali o'tkazilishini talab qiladi. Yurtimizda yoshlar va barcha fuqarolarni siyosiy hayotga faol jalb qilish, ularni siyosiy ong va faollikni oshirish, demokratik qadriyatlarni o'rgatish – ularning barchasi siyosiy ijtimoiylashuv jarayonining asosiy maqsadlari hisoblanadi. Shu bilan birga, siyosiy ijtimoiylashuv orqali fuqarolar o'zlarining siyosiy huquqlarini anglab yetadilar, jamiyatdagi siyosiy tizimni tushunadilar va unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni mamlakatda ijtimoiy-siyosiy faollikni oshiradi, siyosiy me'yorlarni shakllantiradi va fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlaydi. Qolaversa, jamiyat rivoji va taraqqiyotga ta'sir o'tkazadi. Siyosiy bilim va malakaga ega bo'lgan yosh kadrlar bor jamiyat va davlat yuqori siyosiy jamiyatni qura oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Franklin, Daniel (2006). *Politics and Film: The Political Culture of Film in the United States*. Rowman & Littlefield Publishers. p. 4. ISBN 0742538095.
2. Richard E. Dawson and Kenneth Prewitt, *Political Socialization* (Boston: Little Brown and Company, 1969).
3. Fischer, Kurt V. (1980). "Kognitiv rivojlanish nazariyasi: ko'nikmalar iyerarxiyasini boshqarish va qurish". *Psixologik sharh*. **87** (6): 477–531. doi:10.1037 / 0033-295x.87.6.477.
4. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>



5. Solodnikova, I. V. (2007). "Shaxsiyatning ijtimoiylashuvi: hayotning turli bosqichlarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari". *Sotsiologicheskie Issledovaniya*. **33** (2): 32–38.